

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLANISHINING MUAMMO VA YECHIMLARI

**Ishmuratov Raxat Quralbayevich**

Qoraqolpog'iston Respublikasi Qo'ng'irot tumani  
maktabgacha ta'lism bo'limi mudiri

### **Annotatsiya**

Maqlada maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarni maktab ta'limga tayyorlashda innovatsion pedagogik taklif va tavsiyalar keltirib o'tilgan bo'lib, ular Davlat ahamiyatiga molik bo'lgan huquqiy hujjatlar bilan asoslantirilib, nazariy-amiliy jihatdan tahlil qilib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lism konsepsiysi, Intellektual, Ma'naviyat, Axloq, Etik, Estetik, Ilk Qadam, Ilm Yo'li, Steam, Play guruh.

O'zbekistonda amaliyotga tatbiq etilgan uzlusiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanadigan, uning o'qishga intilishini va bilim olishga bo'lgan dastlabki qiziqishini uyg'otadigan muhim bosqichga aylantirildi.

O'zbekistonda milliy ta'lim va tarbiya, davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bevosita rahbarligida ishlab chiqilgan va jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilgan "Ta'lim konsepsiysi"ning muvaffaqiyatli joriy etilishi natijasida mamlakatda noyob uzlusiz ta'lim tizimining to'rt bosqichi barpo etildi.

Aytish kerakki, sobiq tuzum paytida maktabgacha ta'lim tashkiloti ota-onas ishda bo'lgan paytlarida ularning bolalari asosan "bexavotir saqlab turiladigan joy" sifatida amal qilib kelgan. Bugun esa maktabgacha ta'lim bolani intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatlarini rivojlantirishga, uni shaxs sifatida tarbiyalashning dastlabki va muhim bo'g'iniga aylandi. Yurtimizda maktabgacha ta'lim bola yetti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Bugungi kunda Respublika bo'yicha jami 17 ming 200 dan ziyod Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning 67% tarbiyalanmoqda.

Mutaxassislar inson o'z umri davomida oladigan barcha bilimlarning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda olishini ta'kidlashadi. Endi shu o'rinda kelajak avlodga ta'limg-tarbiya berishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'rni va ahamiyatini tasavvur qiling.

Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyat samaradorligini oshirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirilgan qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Birgina 2020-2021 yillar davomida Respublikamizning bir qancha maktabgacha ta'lim tashkilotlari mukammal ta'mirlandi va zamonaviy talablarga mos ravishda jihozlandi.

Shu bilan birga, bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ta’lim dasturlari va o‘quv-tarbiyaviy rejalariga qo‘yilgan davlat talablarini takomillashtirish dolzARB masalaligicha qolmoqda. Aksariyat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasi zamon talablariga javob bermaydi. Bu borada maktabgacha ta’lim tizimida tizimli ishlar tashkil etildi. Aynan oxirgi 20 yil davomida yo‘qolib ketgan 45% bog‘chalarni o‘rnida yangi zamonaviy davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkil etildi. Ularning moddiy texnik bazasi bosqichma-bosqich yangilanib bormoqda.

Oila va bog‘chada bolalarning ta’lim-tarbiyasida qator tafovvutlar mavjud. Bu avvalo bolaning maktabga tayyorlash jarayonida ko‘rinadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotiga bormagan bola to‘g‘ridan-to‘g‘ri maktabga kelganda dastlab boshqa bolalarga qo‘shila olmaydi. Chunki ular ko‘proq oila muhitida ulg‘ayganligi sababli nisbatan tortinchoq bo‘lishadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida esa bolalarni nafaqat tengdoshlari balki kattalar bilan ham muloqot qilish ko‘nikmalari rivojlantirildi. Bu borada maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda “Ilk Qadam” davlat o‘quv dasturi hamda “Ilm Yo‘li” variativ dasturi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda asosiy me’yoriy hujjatlar hisoblanadi. Bundan tashqari Steam, Play guruhlar kabi dasturlar ham bolani maktabga tayyorlashda zamonaviy xorij amaliyotini maktabgacha ta’lim o‘quv jarayoniga olib kirishni taqozo etmoqda. Bolalarni bugun 6 yoshdan boshlab mакtab ta’limiga tayyorlashda ota-onalar bilan kelishligan holda kunning birinchi va ikkinchi yarmida bog‘chada, maktabda, kollejda, barkamol avlod sport maktablarida, musiqa va san’at maktablarida mahalla binolarida yoki shunga mosroq bo‘lgan bino va inshootlarda ta’lim berilmoqda.

Shu ma’noda, ushbu Dastur asosida maktabgacha ta’lim sifati tubdan yaxshilandi, undagi ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ilg‘or tajribalar joriy etildi. Bola shaxsini kamol toptirish, unga faqatgina harfni o‘rgatish emas, balki unda ijobiy fazilatlarni shakllantirish, uning ruhiyatida atrof-olam, jamiyat va ota-onasiga nisbatan hurmat hissini, ona Vatanni sevishdek muqaddas tuyg‘ular singdirildi.

Tajriba-sinov doirasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Farg‘ona viloyati va Toshkent shahrida tashkil etilgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bepul bir yillik tayyorlov guruhlarining 494 ta guruhida 11 103 nafar bola tayyorlovdan o‘tdi.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 5-6 yoshli bolalarni mакtab ta’limiga tayyorlash bo‘yicha an’anaviy maktabga tayyorlash shakllari bilan bir qatorda uning muqobil shakllarini yaratish va rivojlantirish ham ko‘zda tutilgan. Jumladan, yurtimiz bo‘yicha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 6100 ta qisqa muddatli guruhlar tashkil etilishi rejalashtirilgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotdagi qisqa muddatli guruhlarni tashkil etish bolalarni mакtab ta’limiga tayyorlashning samarali shakli bo‘lib qoladi.

Qisqa muddatli guruhlarning yana bir muhim jihat, bu guruhlar bir tomonidan yosh oilalarga qulaylik tug‘diradi, ya’ni ularga moliyaviy yengillik beradi. Eng muhimi esa, bolalarning

maktabgacha ta'limga qamrovi oshib, boshlang'ich sinflarda o'quvchilar orasidagi tafovutga barham beriladi.

Yana bir muhim jihatlardan biri maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarning intelektual qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha zarur didaktik o'yin va o'yinchoqlar bilan ta'minlanishi, kichik kutubxonalarining tashkil etilishidir. Bolajonlarda badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishini yoshligidanoq uyg'otish va eng asosiysi, ona-Vatanimizga nisbatan mehr-oqibatli va sadoqatli farzandlar bo'lib voyaga yetishlarida muhim rol o'ynaydi deb hisoblayman.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun pedagog kadrlar tayyorlash va ular malakasini oshirish bo'yicha respublika Prezidentining qarori ayni muddao bo'ldi. Zamon shiddat bilan taraqqiy etayapti. Texnika va texnologiyalar yil sayin yangilanib borayotir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uslublarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning o'quv reja va dasturlarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o'quv reja va dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtiriladi. 2200 ta maktabgacha ta'lim tashkilotining moddiy-texnika bazasi mustahkamlanadi, jumladan qishloq aholi punktlarida yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurildi, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, uskunalar, o'quv-metodik qo'llanmalar, multimedia resurslari bilan ta'minlandi.

Yangi qurilayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarda avvalgilaridan farqli ravishda yangi loyiha asosida qurilishi rejallashtirilgan. Xususan, bolalarning yangi shakldagi va qulay sharoitga ega yozgi ayvonchalarini, suzish basseynlarini qurish inobatga olingan.

Qaror bilan belgilangan kompleks tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib, biz quidagi ezgu marralarga erishilmoxdamiz: birinchidan, yuqori sifatli maktabgacha ta'lim ta'minlanib, bolalarni sifatli maktabga tayyorlashni tubdan yaxshilanadi va ta'lim-tarbiya jarayoniga muqobil dasturlar joriy etilmoqda; ikkinchidan, bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakli bo'lgan 6100 ta qisqa muddatli guruhlar tashkil etildi; uchinchidan, 3-6 yoshdagi maktabgacha ta'lim tashkilotiga qamrab olinmagan bolalarni ularning ota-onalarini metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash orqali maktab ta'limiga tayyorlash tizimi joriy etildi; to'rtinchidan, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarmog'i 50 ta yangi qurilish hamda mavjud tashkilotlarning 1167 tasini rekonstruksiya qilish va 983 tasini mukammal ta'mirlash orqali kengaytirildi; beshinchidan, qishloq joylardagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarda ota-onalar badal to'lovi 30 foizgacha kamaytirildi; oltinchidan, bolalarning maktabgacha ta'limga qamrovini 1,5 barobar oshirishga erishildi.

Yurtimizda o'g'il-qizlarning hech kimdan kam bo'lmay, barkamol voyaga yetishi, o'z iqtidori va salohiyatini to'liq namoyon etgan holda jamiyatda munosib o'rinni topib, davlatimiz taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishi yo'lida uzoqni ko'zlab amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar bugun o'z samarasini bermoqda.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta'lim tizimida mavjud bolalarni maktabga tayyorlashning zamonaviy tizimi joriy etilgan bo'lib bu borada quidagi ishlar amalga oshirish lozim: birinchidan 2025 yilgacha Respublikamizdagi jami 6 yoshli 744532 nafar bolalarni qamrab olish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarni amalga oshirish lozim. Bu borada maktabgacha ta'lim vazirligi davlat statistika qo'mitasi bilan hamkorlikda doimiy ish olib borishi maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan 6 yoshli bog'chaga qamrab olinmagan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda davlat talablaridan kelib chiqqan holda noananaviy ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil qilish lozim. Aynan mana shu holatlarni hisobga olgan holda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlansa nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni 2019 yil 16 dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydag'i "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-iyundagi "Qamrov darajasi past bo'lgan tumanlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5144-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydag'i "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdag'i "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 132-son qarori.